



TOSHKENT VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2020 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Toshkent viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqi yuqori bo'lgan: Olmaliq shahrida 4186,0 ming so'mni (viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 155,3 %), Bekobod shahrida 3341,4 ming so'mni (124,0 %), Nurafshon shahrida 3119,0 ming so'mni (115,7%) tashkil etdi. Aksincha, ya'ni o'rtacha oylik ish haqi past bo'lgan: Oqqurg'on tumanida 1984,9 ming so'm (viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 73,6%), Parkent tumanida 1801,3 ming so'm (66,8 %), Bo'ka tumanida 1593,9 ming so'm (63,8 %), Bekobod tumanida 1702,1 ming so'm (63,1%) ni tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida viloyatning boshqa hududlariga nisbatan kam miqdorni tashkil etmoqda.



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatidagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi % da
(2020-yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz)



Toshkent viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2019 yil yanvar-iyun	2020 yil yanvar-iyun	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	<u>2300,7</u>	<u>2695,8</u>	117,2
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	<u>2491,2</u>	<u>3119,0</u>	125,2
Olmaliq	<u>3883,6</u>	<u>4186,0</u>	107,8
Angren	<u>1863,2</u>	<u>2225,1</u>	119,4
Bekobod	<u>2949,9</u>	<u>3341,4</u>	113,3
Chirchiq	<u>2154,8</u>	<u>2522,2</u>	117,1
Ohangaron	<u>2121,7</u>	<u>2669,4</u>	125,8
Yangiyo'l	<u>1853,7</u>	<u>2053,6</u>	110,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	<u>1536,3</u>	<u>1984,9</u>	129,2
Ohangaron	<u>1919,2</u>	<u>2250,5</u>	117,3
Bekobod	<u>1483,2</u>	<u>1702,1</u>	114,8
Bo'stonliq	<u>1836,1</u>	<u>2162,3</u>	117,8
Bo'ka	<u>1567,5</u>	<u>1721,0</u>	109,8
Zangiota	<u>2075,1</u>	<u>2645,6</u>	127,5
Qibray	<u>1989,6</u>	<u>2536,7</u>	127,5
Quyichirchiq	<u>1733,9</u>	<u>2170,7</u>	125,2
Parkent	<u>1551,3</u>	<u>1801,3</u>	116,1
Piskent	<u>1622,6</u>	<u>2014,9</u>	124,2
O'rtachirchiq	<u>1810,7</u>	<u>2174,9</u>	120,1
Chinoz	<u>1732,3</u>	<u>1892,9</u>	109,3
Yuqorichirchiq	<u>1813,1</u>	<u>2232,4</u>	123,1
Yangiyo'l	<u>1943,0</u>	<u>2425,9</u>	124,9
Toshkent	<u>1847,0</u>	<u>2088,8</u>	113,1




Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020-yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'm)



Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da
(qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)





Ta'limda 1603 ta muassasada 77075 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 28,2 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 911097,6 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 20,9 % ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1907,1 ming.so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 11,7 % ga o'sdi.



Sanoatda 105 ta korxonada 104357 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi - 38,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 2192596,1 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 50,3 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3501,8 ming.so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga o'sdi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 115 ta muassasada 39450 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,4 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 405729,1 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 9,5 % ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1714,1 ming. so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 26,5 % ga o'sdi.



Tashish va saqlashda 27 ta korxonada 2950 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 30252,4 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,7 % ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1697,8 ming.so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 15,2 % ga o'sdi.

Moliyaviy va sug'urta faoliyatida 82 ta muassasada 3170 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 83300,1 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,9 % ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4379,6 mln.so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 42,8 % ga o'sdi.



Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2019 yildagi 4555-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Qarorga muvofiq, joriy yilning 1-fevraldan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 679 330 so'mni tashkil etadi.



*Toshkent viloyat statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Tel: (71) 202-86-78,*